



**CAHRA (Mojarlardan jabrlangan va xavfi yuqori
bo'lgan hududlar)ni aniqlash tartibi**

1. Umumiy qoidalar

Ushbu Tartib “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)ning mineral xomashyo va texnologik metallar yetkazib berish zanjirida CAHRA — Mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo‘lgan hududlarni aniqlash, baholash va hujjatlashtirish mexanizmlarini belgilaydi.

Jamiyat “CAHRA” ta’rifiga nisbatan IHTT (OECD) uslubiy ko‘rsatmalariga amal qiladi, xususan: mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo‘lgan hududlar qurolli to‘qnashuvlar, keng tarqalgan zo‘ravonlik yoki odamlarga zarar yetkazishning boshqa xavflari mavjudligi bilan tavsiflanadi. Qurolli to‘qnashuvlar xalqaro yoki xalqaro bo‘lmagan xarakterga ega bo‘lgan, ikki yoki undan ortiq davlatlarni qamrab olgan turli shakllarda namoyon bo‘lishi, yoki ozodlik urushlari, isyonlar, fuqarolar urushlari va boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin. Xavfi yuqori bo‘lgan hududlarga siyosiy beqarorlik yoki repressiya, institutsional zaiflik, xavfsizlikning yo‘qligi, fuqarolik infratuzilmasining parchalanishi va keng tarqalgan zo‘ravonlik zonasi bo‘lgan hududlar kirishi mumkin. Bunday hududlar ko‘pincha inson huquqlarining keng ko‘lamda poymol etilishi hamda milliy yoki xalqaro qonunchilikning buzilishi bilan ajralib turadi.

Ushbu Tartib quyidagi xalqaro hujjatlar va standartlarga asoslangan:

- **Mas’uliyatli minerallar tashabbusi (Responsible Minerals Initiative – RMI) talablari;**
- **IHTTning Mas’uliyatli foydali qazilmalar yetkazib berish zanjirlari bo‘yicha tegishli tekshirish (Due Diligence) uslubiy ko‘rsatmalari;**
- **Mas’uliyatli tog‘- kon sanoati bo‘yicha IRMA standarti;**
- **Jamiyatning Yetkazib berish zanjiri bo‘yicha siyosati.**

2. Tartibning maqsadi

Yuqori xavfli hududlardan birlamchi xomashyoni mas’uliyatli xarid qilish masalasida Jamiyatning asosiy falsafasi xavflarni to‘g‘ri boshqarishni ta’minlash uchun oqilona mezonlarni qo‘llashdan iborat bo‘lib, shu bilan birga CAHRA hududlarini mutlaq boykot qilishdan qochish hisoblanadi, chunki bunday boykot ushbu hududlardagi mahalliy aholini tirikchilik manbai va kelgusi rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum qilishi mumkin.

Jamiyat IHTTning (OECD) quyidagi ko‘rsatmasini inobatga oladi:

“Mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda foydali qazilmalarni qazib olish va ular bilan savdo qilish bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar daromad, o‘shish va farovonlik yaratish, tirikchilik manbalarini qo‘llab-quvvatlash va mahalliy rivojlanishga xizmat qilish salohiyatiga ega. Bunday vaziyatlarda kompaniyalar inson huquqlarining jiddiy buzilishi va mojarolar kabi salbiy oqibatlariga hissa qo‘shish yoki ular bilan bog‘lanib qolish xavfi ostida ham bo‘lishi mumkin.”

Ushbu Tartibning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Mineral xomashyo kelib chiqqan hudud mojarolardan jabrlangan yoki xavfi yuqori bo'lgan hududlarga tegishli ekanligini tizimli ravishda aniqlash;
- RMI/OECD talablariga muvofiq, xavflarga asoslangan tegishli tekshiruvni (due diligence) o'tkazish;
- CAHRA hududlaridan kelib chiquvchi xomashyo bilan ishlashda qo'shimcha nazorat va cheklovlarni joriy etish;
- Jamiyatda mas'uliyatli yetkazib berish zanjirini ta'minlash.

3. Amal qilish sohasi

Ushbu Tartib quyidagilarga nisbatan qo'llaniladi:

- Jamiyat tomonidan sotib olinadigan, birlamchi manbalardan olingan barcha Volfram materiallariga;
- Transport/logistika yo'nalishlariga (tranzit mamlakatlar);
- Barcha yetkazib beruvchilar, pudratchilar va logistika hamkorlariga.

4. Asosiy ta'riflar

- **CAHRA (Conflict-Affected and High-Risk Areas)** – qurolli to'qnashuvlar, siyosiy beqarorlik, odam savdosi, majburiy mehnat, korrupsiya va boshqa yuqori xavf ko'rsatkichlaridan zarar ko'rgan hududlar.
- **Tegishli tekshirish (Due Diligence)** – xavflarni aniqlash, baholash, yumshatish va monitoring qilishning tizimli jarayoni.
- **Xavf ko'rsatkichlari (Risk Indicators)** – muayyan hudud CAHRA maqomiga ega yoki yo'qligini belgilovchi omillar (qurolli to'qnashuvlar, inson huquqlarining buzilishi, siyosiy beqarorlik va h.k.).
- **Mojaro (Conflict)** – xalqaro yoki xalqaro bo'lmagan xarakterga ega bo'lgan, ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi davlatlarni qamrab olgan, hukumat kuchlari va nodavlat guruhlar o'rtasidagi, shuningdek, ozodlik urushlari, isyonlar, fuqarolar urushlari va qo'zg'olonlarni o'z ichiga olgan turli tuzilmalardagi siyosiy yoki qurolli to'qnashuvlar, keng tarqalgan zo'ravonlik yoki odamlarga zarar yetkazishning boshqa xavflari.
- **Inson huquqlari (Human Rights)** – irqi, jinsi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, dini yoki boshqa har qanday maqomidan qat'i nazar, barcha insonlarga xos bo'lgan huquqlardir. Inson huquqlariga yashash va erkinlik huquqi, qullik va qiynoqlardan xoli bo'lish, fikr va uni ifodalash erkinligi, mehnat qilish va ta'lim olish huquqi va boshqalar kiradi. Inson huquqlarining buzilishi deganda inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro konvensiyalarning, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining buzilishi tushuniladi.
- **Samarali boshqaruv (Good Governance)** – davlat institutlari jamoat ishlarini yuritishi va jamoat resurslarini qonun ustuvorligi ila inson huquqlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan tarzda boshqarish jarayonidir. Samarali boshqaruvning

asosiy elementlariga shaffoflik, halollik, qonuniylik, asoslangan siyosat, ishtirok etish, hisobdorlik, tezkorlik hamda korrupsiya va qonunbuzarliklarning yo‘qligi kiradi.

5. Mas’ul tarkibiy bo‘linmalar va vazifalar

- **Komplayens xizmati** – CAHRA hududlarini aniqlash, baholash va tegishli tekshirish (due diligence) jarayonini amalga oshirish;
- **Tijorat departamenti** – xomashyoning kelib chiqishi, mamlakat va mintaqaviy ma’lumotlar to‘g‘risida axborot yig‘ish;
- **Yuridik departament** – sanksiyalar, eksport-import cheklovlari va huquqiy xavflarni tahlil qilish.

6. CAHRA’ni aniqlashda foydalaniladigan axborot manbalari

Jamiyat Mojarolar, Boshqaruv va Inson huquqlari bilan bog‘liq muammolarni baholash uchun obyektiv ko‘rsatkichlardan foydalanadi va quyidagi resurslarga tayanadi:

No.	Mezonlar	Resurslar	Chegara ko‘rsatkichi (Threshold)
1	Boshqaruv, gumanitar va mojarolar xavfi	RMI Global Risk Map ma’lumotlariga asoslanadi: https://analyze.eiq.ai/risk-landscape/global?view=RMI (bu foydalanuvchilarga global miqyosda mintaqalar bo‘yicha boshqaruv, inson huquqlari va mojarolar xavfi indekslarini aniqlash va solishtirish imkonini beruvchi vositadir).	"High" (Yuqori) yoki "Extreme" (Ekstremal) reytingi 4-bo‘limda ko‘rib chiqiladi.
2	Moliyaviy va gumanitar xavf	https://www.knowyourcountry.com/copy-of-country-reports tomonidan taqdim etilgan reyting (0 dan 100 gacha) qo‘llaniladi. U mojarolar, BMT sanksiyalari, korrupsiya, AML/CFT (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish) va inson huquqlarini hisobga olgan holda mamlakat xavf darajasini belgilaydi. Reytingi past mamlakatlarda xavf yuqori bo‘ladi.	30 yoki undan past reyting 4-bo‘limda ko‘rib chiqiladi.
3	Kelgusi potensial xavf	https://www.controlrisks.com/riskmap/maps tomonidan taqdim etilgan Control Risk Jahon xaritasi ma’lumotlariga asoslanadi. U kelgusi yil uchun butun dunyo bo‘ylab siyosiy va xavfsizlik risklarini prognoz qiladi.	"High" (Yuqori) reytingi 4-bo‘limda ko‘rib chiqiladi.
4	Sanksiyaviy xavf	BMT/YI/OFAC sanksiyalar ro‘yxati: https://www.un.org/securitycouncil/sanctions/information https://www.sanctionsmap.eu/#/main	Agar mamlakat BMT, YI yoki OFAC sanksiyalari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa,

		https://ofac.treasury.gov/sanctions-programs-and-country-information	u 4-bo'limda ko'rsatilgan jarayonga muvofiq qo'shimcha baholanishi shart.
--	--	---	---

7. CAHRA'ni aniqlashning bosqichma-bosqich jarayoni

7.1. 1-bosqich: Mamlakat darajasidagi dastlabki skrining

Tijorat boshqarmasi va Komplayens xizmati har bir xomashyo manbai bo'yicha quyidagilarni amalga oshirishi shart:

1. Mavjud hujjatlar (Kelib chiqish sertifikat — COO, Eksport deklaratsiyasi, Shartnoma, egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar — konosament (BOL), sotuvchi bilan yozishmalar) va RMI-RMAP Volfram standarti 5-ilovasidagi ko'rsatmalardan foydalangan holda xomashyo kelib chiqqan mamlakatni aniqlash.
2. Tranzit yo'nalishini aniqlash va har qanday shubhali holatlarni ("qizil bayroqchalar") tekshirish.
3. CAHRA'ni aniqlash uchun foydalaniladigan axborot manbalariga tayanib, kelib chiqqan mamlakatni va agar zarur bo'lsa, tranzit mamlakatlarni Xavflarni tasniflash tartibining 7.X-bandiga muvofiq "Past xavfli" (Low-Risk) yoki "Yuqori xavfli" (High-Risk) toifalariga ajratish.

Jamiyat quyidagi mintaqalar va mamlakatlarni qo'shimcha tekshiruvlarsiz to'g'ridan-to'g'ri yuqori xavfli deb hisoblaydi:

1. Kongo Demokratik Respublikasi (KDR) va Dodd-Frank qonunining 1502-bo'limida (DFA1502) ko'rsatilgan unga qo'shni to'qqizta davlat: Angola, Burundi, Markaziy Afrika Respublikasi, Ruanda Respublikasi, Janubiy Sudan, Tanzaniya, Uganda va Zambiya ("Qamrab olingan mamlakatlar").
2. Yevropa Komissiyasi tomonidan EI 2017/821 Reglamentining 14.2-moddasiga muvofiq taqdim etilgan CAHRA hududlarining indikativ va to'liq bo'lmagan ro'yxati (ushbu saytda mavjud: <https://www.cahraslist.net/>).

7.2. 2-bosqich: Haqiqiylik va asoslilikni baholash (Plausibility Assessment)

Har bir manba bo'yicha Tijorat boshqarmasi va Komplayens xizmati quyidagilarni amalga oshirishi shart:

- Materiallar, etkazib beruvchi, KYC (mijozni bilish) ma'lumotlari, kelib chiqishi yoki etkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan transport hujjatlarida har qanday nomuvofiqliklar yoki qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqlash.


- Hujjatlar o'rtasidagi moslikni ta'minlash (masalan, havolalar, markirovka, kontragent nomlari, kelib chiqish/etkazib berish joyi).
- Materiallar qabul qilinganda, ularning taqdim etilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish (masalan, brutto/netto vazni, markirovka, sifat, qadoqlash).
- Yetkazib beruvchi yoki ishlab chiqaruvchi manba haqidagi ochiq manbalardagi barcha ma'lumotlarni o'rganish va inobatga olish.
- Kelib chiqqan mamlakatning zaxiralari, resurslari yoki ma'lum bo'lgan ishlab chiqarish statistikasi (masalan, Tog'-kon vazirligi ma'lumotlari, eksport ma'lumotlari, eksport soliq kvitansiyalari) bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiylikini o'zaro solishtirish.

7.3. 3-bosqich: Shubhali holatlar ("Qizil bayroqchalar" / Red Flags)

Tijorat boshqarmasi va Komplayens xizmati materialning kelib chiqishi, tranziti va etkazib berish zanjiri ishtirokchilari bilan bog'liq IHTT (OECD) "Qizil bayroqchalari" mavjudligini baholashi shart. Quyidagi shubhali holatlar ushbu tartibda ko'zda tutilgan jarayonlarni ishga tushirish uchun asos bo'ladi:

1. Materiallar ma'lum zaxiralari, ehtimoliy resurslari yoki kutilayotgan ishlab chiqarish darajasi cheklangan mamlakatdan kelib chiqqanligi da'vo qilinsa (ya'ni, ushbu mamlakatdan deklaratsiya qilingan minerallar hajmi uning ma'lum zaxiralari yoki kutilayotgan ishlab chiqarish darajasiga mos kelmasa).
2. Minerallar mojarolardan jabrlangan va xavfi yuqori bo'lgan hududlardan tranzit (qonuniy yoki qonunsiz) o'tishi ma'lum bo'lgan mamlakatdan kelib chiqqanligi da'vo qilinsa.
3. Minerallar boshqa CAHRA hududi bo'lishi mumkin bo'lgan mamlakatdan kelib chiqsa yoki u orqali tashilgan bo'lsa.
4. Sotuvchi yoki etkazib berish zanjirining har qanday ishtirokchisi CAHRA hududidan material etkazib beradigan yoki u yerda faoliyat yuritadigan kompaniyalarda aksiyadorlik yoki boshqa manfaatlarga ega bo'lsa.
5. Sotuvchi yoki etkazib berish zanjirining har qanday ishtirokchisi oxirgi 12 oy ichida CAHRA hududidan minerallar sotib olganligi ma'lum bo'lsa.
6. Sanoat sohasidagi ma'lumotlar, insayderlik/anonim xabarlar, Jamiyatning shikoyat mexanizmi orqali olingan yoki og'zaki yoxud yozma ravishda kelib tushgan, materiallar CAHRA hududidan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadigan har qanday ma'lumotlar.

7.4. 4-bosqich: CAHRA baholash sxemasi



Agar etkazib beruvchi yoki mintaqa CAHRA toifasiga kiritilsa, quyidagi ichki choralar ko'riladi:

- Komplayens xizmati "CAHRA hududini baholash bo'yicha xulosa" (Ichki bildirishnoma / Xavflarni baholash bo'yicha hisobot) tayyorlaydi;
- Xulosada mamlakat, mintaqa, xomashyo turi, etkazib beruvchi, xavf ko'rsatkichlari va manbalar ro'yxati ko'rsatiladi;
- Mazkur mintaqa Jamiyatning CAHRA reyestriga kiritiladi.

8. CAHRA bilan bog'liq 10 ta asosiy xavf

Jamiyat IHTT (OECD) yo'riqnomasiga muvofiq, CAHRA hududlaridan materiallar sotib olish bilan bog'liq quyidagi xavflarni tan oladi:

1. **Qurolli guruhlarni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish xavfi.**
2. **Qurolli guruhlarni bilvosita qo'llab-quvvatlash xavfi** (transport, soliqlar, bojxona yoki "yo'l yig'imi").
3. **Davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlari tomonidan vakolatlarning suiiste'mol qilinishi.**
4. **Inson huquqlarining jiddiy buzilishi** (qiynoqlar, qonunsiz hibsga olishlar, ommaviy jinsiy zo'ravonlik va h.k.).
5. **Bolalar mehnati xavfi.**
6. **Majburiy mehnat xavfi.**
7. **Mineral kelib chiqishini soxtalashtirish xavfi** (MSDS, Kelib chiqish sertifikat, bojxona hujjatlari).
8. **Korrupsiya va poraxo'rlik xavfi.**
9. **Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish** (pul yuvish) va moliyaviy firibgarlik xavfi.
10. **Atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazish xavfi** (noqonuniy tog'-kon sanoati, chiqindilarni noto'g'ri boshqarish, suvning ifloslanishi, zaharli tashlamalar).

9. Yetkazib beruvchilarni tasdiqlash jarayoni

Xavf darajasi past deb baholangan yoki belgilangan chegara mezonidan past bo'lgan barcha mamlakatlar bo'yicha, yetkazib beruvchi yoki manba Jamiyatning boshqa ichki tanlash (onboarding) hujjatlari va jarayonlari talablariga muvofiq kelgan taqdirda, Komplaens xizmati rahbari xaridni amalga oshirishni ma'qullaydi.

Yuqori xavfli deb belgilangan barcha mamlakatlar uchun Komplayens xizmati rahbari kengaytirilgan tegishli tekshiruv (enhanced due diligence) o'tkazadi, jumladan, xavflar quyidagi omillarning qaysi biri bilan bog'liqligini aniqlash uchun nodavlat tashkilotlar hisobotlari, tarmoq nashrlari, yangiliklar maqolalarini o'rganadi va kompaniyaning o'tmishini tekshiradi:

- Kontragent yoki xarid amalga oshirilayotgan muayyan hudud;
- Muayyan material;
- Muayyan sanoat tarmog'i (masalan, qazib olish, tranzit).

CAHRA hududlaridan bo'lgan etkazib beruvchilardan Yuqori xavfli xaridlar bo'yicha nazorat varaqasiga (checklist) muvofiq hujjatli dalillar taqdim etish talab qilinadi. Ushbu varaqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shubhali holatlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi (lekin bular bilan cheklanmaydi):

- Tog'-kon / Tadbirkorlik litsenziyalari;

- Geologik qidiruv yoki hisobot (BFS/DFS);
- Ishlab chiqarish yozuvlari (hisobotlari);
- Konni borib ko‘rish bayonnomalari (hisobotlari);
- Jo‘natish portigacha bo‘lgan ichki tranzit hujjatlarining izchilligi.

Bundan tashqari, Komplayens xizmati rahbari quyidagi asosiy maqsadlarni aniqlash uchun "Joyida baholash" (On-the-ground Assessments) o‘tkazishni talab qilishi mumkin:

- Yetkazib berishning doimiy haqiqiyliги va asosliligi;
- Mojarо, gumanitar va boshqaruv mezonlariga rioya etilishi;
- Kon maydoni va tranzit xavfsizligini tekshirish.

Barcha xavfli holatlarda yangi etkazib beruvchilar faqat rasmiy KYC (mijozni bilish) baholashidan o‘tgandan keyin tasdiqlanadi. Bunda har bir etkazib beruvchining shaxsi, biznes munosabatlari turi va tadbirkorlik faoliyatining qonuniyligi tekshiriladi. Pul yuvishga qarshi kurash (AML) KYC jarayonining asosiy maqsadidir.

Eslatma:

“O‘zTMK” AJ hozirgi vaqtda birlamchi xomashyo (volfram) sotib olmaydi; buning o‘rniga uni o‘zining “Ingichka boyitish fabrikasi”dan oladi. Ushbu fabrikadan olinadigan volfram CAHRA mezonlariga ko‘ra "Past xavfli" deb hisoblanadi.

10. CAHRA natijalarini qayta ko‘rib chiqish va qayta baholash davriyligi

10.1. Maqsad

CAHRA bilan bog‘liq xavflarni, etkazib beruvchilar profillarini, sanksiyalarga rioya qilinishini qayta baholash va monitoring natijalarini ko‘rib chiqish davriyligi hamda tartibini belgilash.

10.2. Qamrov doirasi

Xomashyo, uskunalar va xizmatlar etkazib beruvchi barcha subyektlarga hamda CAHRA bilan bog‘liq barcha operatsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi.

10.3. Qayta baholash davriyligi

10.3.1. Har yilgi to‘liq qayta baholash

• Har bir etkazib beruvchining CAHRA xavf reytingi kamida quyidagi asoslarda yangilanishi kerak:

1. Har bir resurs yangilanganda yoki mavjud bo‘lganda, yoki;
2. Kamida yilda bir marta (quyidagilarni qamrab olgan holda):

- Xavf ko‘rsatkichlarini qayta baholash;
- Yangilangan hujjatlar;

- Sanksiyalarga rioya qilinishini tekshirish;
- Inson huquqlari, mehnat va noqonuniy moliyalashtirish xavflari.

10.3.3. Zudlik bilan (real vaqt rejimida) qayta baholash

Quyidagi holatlar yuz berganda ishga tushiriladi:

- Yetkazib beruvchi sanksiyalar ro'yxatiga kiritilganda;
- Mojaro yoki xavfsizlik sharoitlari keskinlashganda;
- Majburiy mehnat, bolalar mehnati yoki inson huquqlarining buzilishi to'g'risida xabarlar paydo bo'lganda;
- Terrorizmni moliyalashtirish yoki noqonuniy qurolli guruhlarini qo'llab-quvvatlash belgilari aniqlanganda;
- Yetkazib berish zanjiriga yangi subyektlar kirganda;
- Ichki yoki tashqi audit tomonidan jiddiy nomuvofiqliklar aniqlanganda.

10.3.5. Yangi yetkazib beruvchilarni baholash

- Shartnoma imzolanishidan oldin to'liq CAHRA baholashini o'tkazish majburiy hisoblanadi.
- Agar "o'rta" yoki "yuqori" xavf aniqlansa — qo'shimcha tekshiruv o'tkazish talab etiladi.
- Yuqori xavf darajasi tasdiqlangan taqdirda, aniqlangan barcha xavflar to'liq bartaraf etilmagunga (kamaytirilmagunga) qadar hamkorlikni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

11. Natijalarni tasdiqlash va hujjatlashtirish

- Qayta baholash natijalari Tijorat boshqarmasi / Komplaens xizmati tomonidan rasmiy hisobot yoki elektron shakl orqali hujjatlashtiriladi.
- Natijalar rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi shart.
- CAHRA reestri kamida yiliga bir marta ko'rib chiqiladi va yangilanadi.
- Hisobotlar kamida 5 yil davomida saqlanishi shart.

12. Yakuniy qoidalar

Ushbu Tartib "O'zTMK" AJ Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Komplaens xizmati RMI/OECD talablariga muvofiq yillik Due Diligence va CAHRA hisobotlarini tayyorlaydi. RMI/OECD standartlariga kiritilgan yangilanishlarga muvofiq zaruratga qarab tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.